



TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIGIDAN FOYDALANISHNING ASOSIY AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLAR

Ishanxodjaeva Dildora Aleksandrovna,

Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti

Tadqiqot, innovasiyalar va xalqaro aloqalar direktori

E-mail: dishankhodjaeva@mdis.uz

ORCID: 0000-0002-3997-7412

THE MAIN ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF USING PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS IN THE FIELD OF TOURISM

Ishanxodjayeva Dildora Aleksandrovna,

Singapore Management Development Institute in Tashkent

Director of Research, Innovations and International Relations

E-mail: dishankhodjaeva@mdis.uz

ORCID: 0000-0002-3997-7412

JEL Classification: P38, Z40

Annotatsiya: Davlat-xususiy sherikchiligining iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, davlat tashkilotlari va xususiy kompaniyalar muayyan loyihalarni amalga oshirish uchun o'z resurslari va tajribalarini birlashtiradi, bu ularga loyihalarni amalga oshirish xarajatlarini kamaytirish va samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ushbu maqolada davlat-xususiy sherikchiligidan turizm sohasida foydalanishning asosiy afzalliklari, kamchiliklari va rivojlanish tendensiyalari alohida ko'rsatilib o'tilgan.

Abstract. The economic essence of public-private partnership is that public organizations and private companies combine their resources and experience to implement certain projects, which allows them to reduce the costs of project implementation and increase efficiency. In this article, the main advantages, disadvantages and development trends of the use of public-private partnership in the field of tourism are shown separately.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sherikchiligi, loyiha, resurs, hamkorlik,

investitsiya, monitoring, nazorat, xususiy tashkilotlar, risk, xususiy investor

Key words: *public-private partnership, project, resource, cooperation, investment, monitoring, control, private organizations, risk, private investor*

Kirish. Yurtimiz o'zining ko'plab tarixiy-me'moriy yodgorliklari, turfa xil iqlimi va tez sur'atlarda rivojlanishi bilan butun dunyo diqqatini o'ziga tortib kelmoqda. Asrlar mobaynida O'zbekiston Buyuk ipak yo'lining savdo, savdogarlar va sayohatchilar, tilshunoslar va missionerlar, isti'lochilar va zabt etuvchilarning yo'lida joylashgan edi. Ayni paytda esa, O'zbekiston tashabbuskor, madaniyat, tarix, an'ana va ekzotik mamlakatlarga qiziquvchilar uchun maftunkor sayyohlik yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Mamlakatimizda turizm salohiyatini rivojlantirish muhim omillardan birga aylanib kelmoqda. Keyingi yillarda iqtisodiyotnin tobora integratsiyalashtib borayotganligi, xalqaro aloqalarning tizimli takomillashuvi natijasida turizm sohasining

barqaror rivojlanib borayotganligini ko'rish mumkin. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida turizm sohasining milliy iqtisodiyotdagi o'rnini va nufuzini ham tobora ortib bormoqda. Chunki turizm eng serdaromat sohalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Davlat-xususiy sherikchiligi turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin, masalan, qo'shma korxonalar, kontsessiya shartnomalari, loyihalarda ishtirok etish va boshqalar.

Material va metod. Bugunda Vatanimiz tarixi jumladan, turizm sohasidagi muvavvaqiyatli islohotlar tarixini, iqtisodiyotni jadal sur'atlar bilan taraqqiy ettirishga va bu dolzarb muammoni amalda hal etishda qaratilgan turistik birlashmalar faoliyatini, jumladan viloyatlar miqiyosida o'rganish va tadqiqot qilish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Turizm

sohasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini keyingi yillarda keng ko'lamda tadqiq qilinmoqda. Uning muhim jihatlari mamlakatimiz va xorijlik olimlar va mutaxassis tadqiqotchilar tomonidan faol o'rganilmoqda. 1 Respublikamiz tarixchi va iqtisodchi olimlaridan M.T.Alimova, N.Tuxliyev, Tolibova S.R. Q.X.Abduraxmonov, M.E.Po'latov, Q.J.Mirzayev, B.N.Navruzoda, B.Sh. Safarov, va boshqalarning tadqiqotlari va ilmiy asarlarida turizmga oid muhim masalalar tadqiq etilgan.

Davlat-xususiy sherikchiligi davlat va xususiy tashkilotlar muayyan sanoat yoki mintaqada umumiy maqsadlarga erishish uchun kuchlarni birlashtiradi. Davlat-xususiy sherikchiligidan turizm sohasida foydalanishning ham bir qator afzalliklari va kamchiliklari mavjud (1-jadval).

1-jadval

Turizm sohasida davlat-xususiy sherikchiligidan foydalanishning asosiy afzalliklari va kamchiliklari

Davlat-xususiy sherikchiligidan turizm sohasida foydalanish afzalliklari:	Davlat-xususiy sherikchiligidan turizm sohasida foydalanish kamchiliklari:
Davlat va xususiy tashkilotlarning resurslari va tajribasini birlashtirish orqali turizm sohasini amalga oshirish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.	Manfaatlar to'qnashuvi. Davlat va xususiy tadbirkorlik subyektlari, ayniqsa, ularning maqsad va manfaatlari bir-biriga to'g'ri kelmasa, davlat va xususiy shaxslar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin.
Davlat-xususiy sherikchiligidan foydalangan holda turizm sohasiga yangi texnologiyalar va investitsiyalar oqimini ko'paytirish mumkin.	Boshqaruvdagi qiyinchilik. DXSh loyihalarini boshqarish davlat va xususiy tashkilotlar o'rtasidagi turli qoidalar va tartiblar tufayli murakkab bo'lishi mumkin.
Samaradorlikni oshirish. Turizm sohasida davlat-xususiy sherikchiligi jarayonni optimallashtirish va ilg'or texnologiyalardan foydalanish orqali yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.	Hukumatning beqarorligi. Siyosiy vaziyat yoki hukumat siyosatidagi o'zgarishlar DXSh loyihalarini amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
Moliyaviy foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish. Davlat-xususiy sherikchiligi turizm uchun qo'shimcha mablag'larni jalb qilishda yordam berishi mumkin, jumladan xususiy investitsiyalar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlari orqali turizm imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.	Iqtisodiy vaziyat va bozordagi o'zgarishlar DXSh turizm sohasi natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
Loyihani muvaffaqiyatsiz amalga oshirish	Investitsion risklar. Xususiy investorlar DXSh

xavfi davlat va xususiy tashkilotlar o'rtasida taqsimlanadi, bu har bir tomon uchun risklarni kamaytiradi.

loyihalariga sarmoya kiritish bilan bog'liq risklarga duch kelishi mumkin, masalan, to'lovga qodir emasligi yoki loyihaning muvaffaqiyatsizligi.

Davlat xususiy sherikchiligidan turizm sohasida foydalanish orqali turizm sohasini tubdan rivojlantirish va mamlakatimizga sayyohlik oqimi ko'lamini ko'paytirish mumkin. Davlat xususiy sherikchiligi tufayli rivojlanmay qolgan sayyohlik agentliklarini davlat dasturlari doirasida yanada kengaytirib, ularga investitsiyalar oqimini yo'naltirish lozim. Turizm salohiyati rivojlangan mamlakatlarda bugungi kunda shiddat bilan o'sib kelmoqda. Yurtimizda ham turizm sohasida bir qancha islohotlar o'tkazildi. Xususan, O'zbekistonda 350 dan ortiq mehmonxonalar sayyohlarni qabul qilib xalqaro standartlarga mos ravishda xizmatlar ko'rsatmoqda.

Natija. Yurtimiz faqatgina tarixiy va ma'daniy-ma'rifiy me'morchiligi bilan mashhur bo'lib qolmasdan, balki aktiv sayyohlik yo'nalishlariga ega mamlakat sifatida faoliyat olib bormoqda. Hududimizning geografik jihatdan qulay joylashganligi bu hududda zamonaviy qulaylik va yovvoyi tabiatning uyg'unlikka kirisha olishiga imkoniyat beradi. O'zbekiston hududida har qanday tabiat landshaftlarini, tog', vodiylar, cho'l, daryo va ko'lni uchratish mumkin.

O'zbekistonda turizm sohasi nisbatan yangi bo'lsada, u rivojlanishda ko'pgina sohalardan peshqadam sifatida qaralmoqda.

Xalqaro turizmni rivojlantirish davlat xususiy sherikchiligidan foydalanish juda katta salohiyatga ega. O'ttiz ikki yil avval O'zbekistonni hech kim istiqbolli turizm hududi sifatida bilmas edi. Mustaqillikka erishilgach davlat tomonidan turizm sohasida yangi tamoyillar ishlab chiqila boshladi. 1992 yilning 27 iyulida

O'zbekiston Respublikasining 1-Prezidenti farmoni bilan "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi tashkil topdi. "O'zbekturizm" ning asosiy vazifasi va maqsadi turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirish va turizmni rivojlantirishning milliy modelini yaratishdan iborat.

Bundan tashqari, milliy kompaniya malakatimizda faoliyat yuritayotgan barcha turistik tashkilotlarning faoliyatlarini muvofiqlashtiradi, turizmning barcha yo'nalishlarining rivojlanishini rag'batlantiradi, kadrlar masalasi bilan shug'ullanadi, moddiy-texnika bazasini shakllantirishga va soha infrastrukturasi rivojiga investitsiya oqimini jalb qiladi.

1993 yildan buyon bizning davlatimiz "Xalqaro turizm tashkiloti" (UNWTO)ning a'zosi hisoblanadi. 2004 yildan boshlab Samarqandda – buyuk Ipak yo'lining "yuragi"da UNWTO ning transkontinental magistralda turizmni koordinatsiyasi bilan shug'ullanuvchi ofisi faoliyat yuritib kelmoqda.

Hukumatimiz tomonidan turizm sohasini modernizatsiya qilish, turizm sohasida davlat xususiy sherikchiligini rivojlantirish, davlatda transport va mexmonhona infrastrukturasi yaxshilash, hamda turizmga normativ-huquqiy bazani mukammallashtirish sohalarda ulkan ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Davlat xususiy sherikchiligidan foydalangan holda safarlar turistik mavsumlarning kengaytirish, vatanimizga keluvchi turistlarning oqimlari muddatini optimallashtirish, hamda O'zbekistonda har bir fasl turistlar uchun o'ziga hos bo'lishini ko'rsatib berishda muhim ro'l o'ynaydi.

Munozara. Bundan tashqari O'zbekistonning turistik salohiyatini qo'llab-quvvatlashda UNWTOning rahnamoligida o'tadigan, Toshkentdagi xalqaro "Ipak yo'lidagi turizm" yarmarkasining ham ahamiyati juda katta. Bu yarmarkaning asosiy maqsadi turizm sohasidagi o'zbek hamda horij mutahassislarini birlashtirish, ular o'rtasida professional yaqin hamkorlikni yanada kengaytirishdan iborat. Bugungi kunga kelib bu xalqaro yarmarka Markaziy Osiyodagi eng yirik ko'rgazmalardan biri sifatida joy olgan.

Xulosa. Afsonaviy o'tmishi, Ipak Yo'lining tarixiy-muhandislik merosi, tabiatining ajoyib manzaralari, avloddan-avlodga o'tib keluvchi mahalliy hunarmandchilik, xalqning mehmondo'stligi va insoniy qadriyatlari bilan sayyohlarni hayratga soluvchi, mahliyo qiluvchi shu bilan birga ularni hursand etuvchi O'zbekiston barcha burchaklaridan kishilarni o'ziga jalb etadi. Shuning uchun biz kelajakda turizm salohiyatini davlat xususiy sherikchiligi orqali yanada rivojlantirishimiz va kelgusida turistik firmalarni salmog'ini oshirishimiz lozim. Qishloqlarimiz farovonligini oshirish, tub madaniyatini va ma'rifatini rivojlantirish, saqlash va targ'ib qilishda ekoturizmning ahamiyati katta deb hisoblaymiz. Zero bunda, aholining atrof muhitni tabiiy yodgorliklarni saqlashda faolligi oshiriladi, ekoturistlarni jalb etish va ularga servis xizmat ko'rsatish orqali viloyatimizga chet el valyutasi tushumiga hissa qo'shiladi. Shuningdek atrof muhitga zarar yetkazmagan holda ekologik turg'unlik ta'minlanadi, hududdagi qishloq aholisining ekologik bilimlari oshiriladi, mahalliy, madaniy muhit saqlanishiga g'amxo'rlik qilinadi. Qishloqlarning har tomonlama

rivojlanishiga hissa qo'shiladi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, ana shunday ekoturistik salohiyatga ega hududlarning ichki imkoniyatlari, o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, shakllangan infratuzilma va investitsion xususiyatlardan kelib chiqib, ekoturistik kompaniyalar barpo etish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Chortoq va Zomin tumanlarida maxsus dasturlar asosida turistik salohiyatni yuksaltirish borasida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda hamda bu borada yetarlicha tajriba to'plangan. Viloyatda uchta alohida qo'riqlanadigan hudud bor. Shulardan biri Nuroto davlat qo'riqxonasidir. Ushbu alohida qo'riqlanadigan tabiiy hududlarda ko'plab o'simlik va hayvonot turlari muhofaza ostiga olingan. Shuning uchun ham keyingi yillarda Nuroto va Zomin tabiati uning tog'lariga bo'lgan qiziqish tobora ortmoqda. Nuroto tabiiy iqlimiga ko'ra dunyoga mashhur Shvetsariyaga qiyos etilishi bejiz emas. Barcha joyla bo'lgani kabi mamlakatimizda ham turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Demak, bulardan ko'rinib turibdiki, birgina ekoturizmni rivojlantirish orqali viloyatimizdagi uzoq tog'li hududlar aholisini ish bilan ta'minlash, ularning turmush tarzini yaxshilash va tabiatni asrash borasidagi katta ko'lamdagi katta ishlarni amalga oshirish mumkin. Turizm sohasi rivojiga e'tiborni kuchaytirish mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikning ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Ushbu soha nafaqat iqtisodiyotimizning yuksalishini ta'minlashda, balki dolzarb ijtimoiy ahamiyatga molik masalalar, jumladan yangi ish o'rinlari tashkil etish orqali aholi bandligini ta'minlash, daromadlarini oshirish ham ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.



FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm, sport va madaniy meros sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PF-6199-farmoni. 2021 yil 6-aprel. //www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 939-son qarori. 23.11.2017 yil// <https://www.norma.uz>
3. Ван Циншен, Историко-культурный туризм и развитие туристических городов Культура народов Причерноморья. 2002. №35. С.11-15
4. Дмитриевский Ю.Д. Туристские районы мира. Смоленск, 2000. 224 с.
5. Колотова Е. В. Рекреационное ресурсосведение: Учеб. пособие. - М.: РМАТС. [1, с. 92-93]
6. Карпов Г.А., Хорева Л.В. Экономика и управление туристской деятельностью. СПб., 2011. 268 с. [2.с.135]
7. Королёва Н.В. Имитационное моделирование направлений развития туризма в рекреационных зонах региона. Майкоп, 2007. 164 с.
8. Richards, G. (1996) Cultural Tourism in Europe. CABI, Wallingford. [1, с. 45]
9. Ro'ziyev Sh. "O'zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini indikativ boshqarish metodikasi" J. Экономика и финансы. <https://cyberleninka.ru/>
10. Тухлиев Н., Таксанов А. Экономика большого туризма. Т.: «Узбекистон миллий энциклопедияси», 2001. — 208с.